

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON


2025-YIL, APREL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN



ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otobek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA’SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA’SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN’IY INTELLEKTNI ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQUARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQUARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIKNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUVLARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzbek Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Tashnazarov Sur'atjon Abdullayevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada umumiy ovqatlanish xizmatlarining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari tizimini baholashning asosiy elementlari umumlashtirilgan hamda uni baholashning roli o'rganilgan. Savdo va milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish platformasini shakllantirishda umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Umumiy ovqatlanish korxonasi o'z xususiyatlariga ko'ra murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga mansub ekanligi asoslab berilgan va sohani rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: umumiy ovqatlanish xizmatlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, ovqatlanish korxonalari turlari, milliy iqtisodiyot, sinergetik samaradorlik.

Аннотация

В статье обобщены основные элементы системы оценки ключевых показателей деятельности предприятий общественного питания и изучена роль этой оценки. Особое внимание уделено развитию сферы общественного питания как платформы для устойчивого развития торговли и национальной экономики. Обосновано, что предприятия общественного питания по своим характеристикам относятся к сложным социально-экономическим системам, а также разработаны предложения по дальнейшему развитию отрасли.

Ключевые слова: услуги общественного питания, предприятия общественного питания, виды предприятий общественного питания, национальная экономика, синергетическая эффективность.

Abstract

The article summarizes the main elements of the evaluation system for key performance indicators of food service enterprises and examines the role of such assessment. Special attention is given to the development of food service as a platform for the sustainable growth of trade and the national economy. It is substantiated that food service enterprises, due to their characteristics, belong to complex socio-economic systems, and proposals for the development of the sector have been formulated.

Keywords: food service, food service enterprises, types of food service enterprises, national economy, synergistic efficiency.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida savdo xizmatlarini rivojlantirishda iste'molchilarning o'sib borayotgan ehtiyojini sifatli qondirishni ta'minlash masalalari ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli, savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ko'rsatkichlarini ishlab chiqish masalalarini hal etishga tadqiqotlarda yuqori ahamiyat qaratilmoqda. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida savdoning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan umumiy

ovqatlanish korxonalarining samarali faoliyat yuritishi uchun qulay sharoitlarni yaratish muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Aholiga ko'rsatilayotgan umumiy ovqatlanish xizmatlari sifatini oshirish, savdo xizmatlarini innovatsion va raqamlashtirish asosida taraqqiy ettirishga ustuvorlik berish, xizmatlar raqobatbardoshligini ta'minlash hamda sohaning kelgusi taraqqiyot strategiyasini belgilab olish kabi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bozorga yo'naltirilgan xizmatning asoslaridan biri sifatida savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari faoliyatini amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini xorijiy olimlar ham o'rganishgan. Jumladan, Porter Ye. Maykl [2] savdo xizmatlarini tashkil etish, Ch. Farel [3] savdo faoliyatini yo'lga qo'yish asoslarini, Mate E. [4] esa savdoda va savdodan keyingi xizmatlarni boshqarish jarayonlarini tadqiq qilgan.

MDH davlatlari iqtisodchi olimlaridan A.M. Fridman [5] savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari iqtisodiyoti va ularni tashkil etish masalalarini, Lарыgin Yu.N. [6] savdo jarayonida iste'molchilar harakatini, B.I. Sineskiy [7] va R. Shodiyev [8] kabi yetakchi olimlar esa savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlarida samaradorlikni oshirishga doir turli xil modellarni taklif etgan.

O'zbekistonlik olimlardan M.R. Rasulev [9] hamda M.M. Muhammedov [10] savdo va texnologik tizimlar jarayonida umumiy ovqatlanish xizmatlarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti sohasida muhim ilmiy yutuqlarga erishishgan. Shunga qaramay, mavjud umumiy ovqatlanish xizmatlari turlari va texnologik tizimlar uchun statistik-iqtisodiy tahlil va boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagani ushbu mavzuda ilmiy maqola yozishni zarur qildi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqola tadqiqotining nazariy va uslubiy asosini iqtisod fani klassiklarining fundamental ilmiy va amaliy ishlari, shuningdek, o'rganilayotgan muammo bo'yicha yetakchi mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari tashkil etadi. Faoliyat yuritishdagi muammolar bo'yicha ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot va savdo tashkilotlarining ishlanmalari, savdoni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish tizimi, xalqaro, milliy va mintaqaviy ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar materiallari, davriy ilmiy jurnallardagi nashrlar, shuningdek, savdoni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, Respublika va ijro hokimiyati hamda savdoni boshqarishning hududiy dasturlari ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning markazlashtirilgan va rejalashtirilgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida korxonalarning mulk shakli, tarkibiy tuzilishi va faoliyat yuritish muhiti tubdan o'zgardi. Mamlakatda bozor munosabatlarini shakllantirish va iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish

natijasida iqtisodiyotning barcha sohalarida, jumladan, umumiy ovqatlanish sohasida ham yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari aniq maqsadga yo'naltirilgan, yagona moddiy-texnik baza, umumiy ovqatlanish-texnologik jihozlar va tashkilot-iqtisodiy tuzilmaga ega bo'lgan subyektlar sifatida shakllandi. Ularning moddiy bazasi umumiy resurslar majmui, tiplashtirilgan inshootlar va standartlashtirilgan texnologik uskunalaridan foydalanish bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiyotning global integratsiya jarayonlari va raqobat kuchayishi sharoitida umumiy ovqatlanish xizmatlarini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifati va tijorat samaradorligini oshirish dolzarb vazifaga aylandi. Xorijiy tajriba tahlillari shuni ko'rsatadiki, savdo usullarining diversifikatsiyasi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish orqali umumiy ovqatlanish korxonalari o'z raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jahon amaliyotida yangi bozor segmentlarini egallash, umumiy ovqatlanish xizmatlarining bozordagi ulushini kengaytirish va sotuv jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish strategik ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tendensiyalar umumiy ovqatlanish sohasini modernizatsiya qilish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida xalqaro iqtisodiy va siyosiy aloqalar rivojlanmoqda, shuningdek, xorijiy tajriba hamda ilg'or amaliyotlarni joriy etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu jarayon zamonaviy iqtisodiyot sharoitida umumiy ovqatlanish xizmatlari tarmog'ini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, shuningdek, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga zamin yaratmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari o'z xususiyatlariga ko'ra murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga mansub bo'lib, ochiq tizim sifatida tashqi muhit bilan uzluksiz axborot almashinuvi va o'zaro ta'sirlashuvi bilan tavsiflanadi. Tizimning moddiy, texnologik, texnik va tashkiliy jarayonlari xizmat ko'rsatish sifati hamda samaradorligini belgilaydi. Subyekt sifatida boshqaruv apparati iqtisodiy mexanizmlar orqali faoliyatni maqsadli yo'naltirish va muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

Umumiy ovqatlanish tizimi tashqi muhitning turli omillari ta'sirida rivojlanadi. Bevosita ta'sir etuvchi omillar sifatida bozor munosabatlari holati, iste'molchilarning talab darajasi va raqobat muhiti qayd etilsa, bilvosita ta'sir etuvchi omillar qatoriga iqtisodiy siyosat barqarorligi, moliya-kredit va soliq siyosati, infratuzilmaning rivojlanganligi hamda tadbirkorlik muhitini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kiradi.

Korxonaning ichki muhiti esa umumiy ovqatlanish-ishlab chiqarish jarayoni, boshqaruv tizimi, savdo va xizmat ko'rsatish strukturalaridan iborat. Ichki va tashqi muhitning muvozanatli ta'siri umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi omildir.

Umumiy ovqatlanish korxonalari tashkiliy-huquqiy shakli, miqyosi va faoliyat yo'nalishiga ko'ra tasniflanadi. Fuqarolik-huquqiy normalarga muvofiq, ular mulk

shakli, ta'sislar tarkibi va mulkiy huquqlari asosida turli toifalarga ajratiladi. Miqdoriy ko'rsatkichlarga ko'ra esa yirik, o'rta va kichik korxonalarga bo'linadi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlari mustaqil ravishda faoliyat yuritib, huquqiy mexanizmlar orqali o'z maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Jahon amaliyoti shundan dalolat beradiki, davlatning iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi siyosati fuqarolik huquqlari va mulk munosabatlarini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Hozirgi davrda davlat tomonidan umumiy ovqatlanish sohasida metrologiya, standartlashtirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasida tartibga solish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun mazkur sohada huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Umumiy ovqatlanish xizmatlari global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanib, turli davlatlarning mentaliteti, iqlimi va urf-odatlariga mos shakllanmoqda. Shu bilan birga, sohada tasnif va standartlashtirish borasida yagona xalqaro standartning mavjud emasligi, sohaning murakkab va tez o'zgaruvchan xususiyati bilan izohlanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida umumiy ovqatlanish sohasini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish, yangi bozor segmentlarini egallash va xizmat turlarini diversifikatsiya qilish strategik ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Bunday yondashuv umumiy ovqatlanish korxonalarining samaradorligini oshirish hamda ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'sirida umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilmoqda. Ushbu sohaning istiqbolli rivojlanishi quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda:

Iqtisodiy taraqqiyotda umumiy ovqatlanish xizmatlarining roli ortib boradi. Soha mamlakat ichki yalpi mahsulotining muhim segmenti sifatida faoliyat yuritadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari soni va turlari kengayib, ushbu sohada band bo'lgan aholining ulushi sezilarli darajada oshadi, mehnat bozorida esa yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Raqobat muhitining kuchayishi natijasida xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanadi. Innovatsion texnologiyalar va xizmatlarning diversifikatsiyasi orqali mijozlarga zamonaviy talablarga javob beradigan mahsulot va xizmatlar taqdim etiladi.

Sohada savdo, dam olish va transport infratuzilmalarini o'zida mujassam etgan yangi formatdagi raqobatbardosh korxonalar shakllanadi. Bu esa umumiy ovqatlanish tarmog'ini ko'p tarmoqli va kompleks rivojlanish yo'liga olib chiqadi.

Gastronomik turizmning taraqqiyoti orqali umumiy ovqatlanish xizmatlari milliy turizm infratuzilmasining ajralmas qismiga aylanadi va mamlakatning turistik salohiyatining oshishiga hissa qo'shadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida raqamli texnologiyalar va innovatsion xizmat ko'rsatish usullarini joriy etish orqali xizmat sifati va raqobatbardoshlik darajasini oshirish borasida quyidagilar taklif etiladi:

- Sohada ishlaydigan mutaxassislar uchun maxsus o'quv dasturlari va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish, kasbiy malaka va servis madaniyatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish.
- Gastronomik turizmni qo'llab-quvvatlash maqsadida mahalliy taomlar va milliy ovqatlanish an'alarini rivojlantirish hamda ularni xalqaro miqyosda targ'ib qilish.
- Umumiy ovqatlanish va turizm sohalari o'rtasida o'zaro integratsiya jarayonlarini faollashtirish orqali tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirish.
- Davlat tomonidan umumiy ovqatlanish korxonalariga moliyaviy, huquqiy va marketing yo'nalishlarida qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish, kichik va o'rta biznes subyektlarini rag'batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
2. Портер Е. Майкл. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов: Пер. с англ. –М.: Альпина Бизнес Бунс, 2005. –454 с.;
3. Фатреля Ч. Основы торговли / Пер. с англ. — Тольятти: Издательский дом ДОВГАНЬ, 1995. — 720 с.
4. Мате Э. Послепродажное обслуживание: Пер. с франц. / Обх. ред. В. С. Загашвили. -М.: А/О Издательская группа «Прогресс», 1993. -160 с.
5. Фридман А.М. Экономика предприятий торговли и питания потребителского общества. Учебник. -М. «Дишков и К». 2003 -628с.
6. Лапыгин Ю.Н. Стратегический менеджмент: учеб. пособие. –М.: Эксмо, 2010. –432 с.;
7. Синецкий Б.И. Основы коммерческой деятельности. М.: Юристъ, 1998г.
8. Шодиев Р. Ноишлаб чиқариш соҳаси иқтисодиёти. Монография. –Т.: "Фан", 2005. – 256 б.
9. Расулев М.Р. Бозор иқтисодиёти асослари. — Т.: Ўзбекистон, 1998. — 380 б.
10. Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд. 1998. с.282;
11. WTO (2021), World Trade Report 2021: The Future of Services Trade, Geneva: WTO. Trade in services is defined in the General Agreement on Trade in Services (GATS) as comprising four modes of supply: 1 – cross-border supply; 2 – consumption abroad; 3 – commercial presence; and 4 – movement of natural persons¹¹ <https://www.kom-dir.ru/article/1457-pokazateli-effektivnosti-deyatelnosti>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlartaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**